




**"THE INTERPRETATION OF SUFI CONCEPTS IN HAFEZ OF
SHIRAZ'S GHAZAL 'الا يا ايها الساقى'"**

Guzal Inoyatova

4th-year student, Persian-English group
School of Iranian and Afghan Studies
Tashkent State University of Oriental Studies

Muhammad Reza Asloni

Senior Lecturer at the School of Iranian and Afghan Studies
TSUOS
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Hafez of Shiraz, ghazal, saqi, sabā, destination, Sufism, love, musk, wine.

Received: 28.04.25

Accepted: 10.05.25

Published: 14.05.25

Abstract: This article explores the analysis and selected translations of the ghazal beginning with “الا يا ايها الساقى” by one of the prominent figures of Persian literature, Hafez of Shiraz. Drawing upon the views and interpretations of Iranian literary scholars and experts on Hafez, the paper provides insights into the meaning and content of the ghazal. Additionally, a sample of its translation by Uzbek poets is included. The meanings and usages of key words in the ghazal are clarified based on reliable sources and dictionaries.

**HOFIZ SHEROZIYNING “الا يا ايها الساقى” G‘AZALIDA TASAVVUFİY TUSHUNCHALAR
TALQINI**

Guzal Inoyatova

4-kurs fors-ingliz guruhi talabasi
“Eronshunoslik va afg‘onshunoslik” oliy maktabi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Muhammad Rezo Asloni

“Eronshunoslik va afg‘onshunoslik” oliy maktabi katta o‘qituvchisi
TDSHU
Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Hofiz Sheroziy, gʻazal, soʻqiy, sabo, manzil, tasavvuf, ishq, mushk, sharob.

Annotatsiya: Joriy maqolada Fors adabiyotining yetuk dargʻalaridan biri boʻlmish Hofiz Sheroziyning “الا يا ايها الساقى” deb boshlanuvchi gʻazalining tahlili va tarjimasidan namunalar tadqiqqa tortildi. Eron adabiyotshunos va Hofizshunos olimlarning fikr va mulohazalariga tayanib gʻazalning qanday maʼno va mazmun kasb etishi haqida maʼlumotlar berildi. Shuningdek mazkur gʻazalni shoirlarimiz tomonidan qilingan tarjimasidan namuna kiritildi. Gʻazalda ishlatilgan soʻzlarni manbalar va lugʻatlar asosida maʼnolari va ishlatilinish oʻrinlari yoritib berildi.

ТОЛКОВАНИЕ СУФИЙСКИХ ПОНЯТИЙ В ГАЗЕЛИ ХАФИЗА ШИРАЗИ «الا يا ايها الساقى»

Гузаль Иноятова

Студентка 4 курса, группа персидско-английского направления

Высшая школа иранистики и афганистики

Ташкентский государственный университет востоковедения

Мухаммад Реза Аслони

Старший преподаватель Высшей школы иранистики и афганистики

ТГУВ

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Хафиз Ширази, газель, сакий, саба, обитель, суфизм, любовь, мускус, вино.

Аннотация: В данной статье рассматриваются анализ и примеры перевода газели, начинающейся со слов «الا يا ايها الساقى», одного из выдающихся представителей персидской литературы — Хафиза Ширази. На основе мнений и суждений иранских литературоведов и исследователей творчества Хафиза приводятся сведения о смысле и содержании газели. Также приведён образец перевода этого произведения, выполненный узбекскими поэтами. Значения и употребления слов, использованных в газели, раскрыты с опорой на авторитетные источники и словари.

Xoja Hofiz Sheroziy (taxallusi; asl ismi: Shamsuddin Muhammad ibn Muhammad) (1326 - Sheroz - 1389) — buyuk fors shoiri Eronda tugʻilgan . Lekin butun umri davomida ona shahridan chetga chiqmagan bu «isonafaslik rindi Sheroz» (Navoiy) oʻzining yoniq sheʼrlari bilan yarim dunyoni egalladi va oʻzidan keyingi Sharq Gʻarb adabiyotiga katta taʼsir koʻrsatdi. Buyuk nemis shoiri Gyote Hofizni «noyob uslub dahosi», «muqaddas Hofiz» deb ulugʻlab, uning taʼsirida «Gʻarbu Sharq devoni»ni yaratgan boʻlsa, V. Jukovskiy, A. Pushkin, Yu. Lermontov, A. Fet, S. Yesenin

kabi rus shoirlari Hofizdan ilhomlanib, «hofizona» ohanglarda she'rlar yozganlar, uning ijodini yuksak baholaganlar. Sharqda esa Sheroz bulbulidan ta'sirlanmagan shoirning o'zi yo'q hisobi.

Mashhur hind shoiri va mutafakkiri Muhammad Iqbol Hofizni buyuk sehrigar, deb luft etgan edi. Chindan ham dunyo adabiyotida so'zni Hofizday ming bir maqomda o'ynatgan, so'zga ming bir ma'no yuklagan, so'zni ming bir sehr-u sinoat pardasiga o'ragan yana bir shoirni topish mumkin emas. Hofiz she'rlari tabiiyligi, samimiyligi, hassos bir muhabbat va yuksak badiiyatga yo'g'rilganligi, mazmuni teran va serqatlamligi, falsafasining quyuqligi, nozik ishoralarga boyligi, uslubining murakkabligi uchun ham unga «lison ul-g'ayb» — «g'oyibning tili» sifatini berganlar.

Quyida biz Hofiz devoninig birinchi g'azali “Alo yo ayyusas soqiy” deb boshlanuvchi g'azalini sharhini ko'rib chiqamiz. U o'zbek tiliga ham tarjima qilingan. Ammo uni yanada chuqurroq tushunish uchun baytlardagi yashirin ma'nolar, orifona ramzlar, go'zal tashbehlarni anglamoq va his etmoqlik uchun ushbu g'azalga murojaat qildik.

ألا يا أيُّهَا السَّاقِي أدِرْ كَأْساً و ناولها

که عشق آسان نمود اول ولی افتاد مشکلها

Ayo soqiy, sunib joming, qil ehson yashnasin dillar,

Ko'rindi avval ishq oson-u, so'ngra tushdi mushkillar.

ساقی - sharob olib keluvchi shaxs

ادر - aylantir, harakatga keltir ma'nosidagi fe'l

كأسا-sharob idishi jom qadah

ناولها-ber, uzat ma'nosidagi fe'l

Mazmuni: Ishq boshida osondek ko'rinadi, lekin asta-sekin undagi qiyinchiliklar namoyon bo'ladi. Shuning uchun, ey soqi, menga sharob ber va bu yo'lda madadkor bo'l.

Ahmad Sudi ushbu baytning birinchi misrasini Yazidga (ibn Muoviya ibn Abu sufyon) nisbat beradi, lekin Alloma Qazvini va Doktor G'ani bu fikrni rad etadilar. Aniq narsa shuki, bu arabcha misra Hofizga tegishli emas. Hofizning izohchilari orasida mashhur bo'lgan Ustoz Moytaba Minovi ham o'z sharhida bu misraning Amir Xisrav Dehlaviy (vafoti – 725 hijriy) tomonidan yozilgan quyidagi baytda kelganini eslatadi.

شراب لعل باشد قوت جانها، قوت دلها الا يا ايها الساقى ادر كأساً و ناولها

Sharob la'l bo'lib jonlarga quvvatdir, dillarga kuchdir:

Ayo soqi, jomni aylantirib menga uzat!

به بوی نافه‌ای کآخر صبا زان طره بگشاید

ز تاب جعد مشکینش چه خون افتاد در دلها

Sabo yechmoqchi bo'lgan sochining xush bo'yiga ontkim

Muanbar halqa-halqa sochidan qon bo'ldi bu dillar

به بوی -intizorida , umidida

جعد - jingalak va halqa-halqa sochlarni ifodalovchi sifat
 kindik(qorin) qismida joylashgan mushk xaltasi qopcha-
 صبا -shamol (bu yerda xabarchi ma'nosida qollanilgan)
 طره - sochning burmalari va to'liqlari
 خشک-xushbo'y

Mazmuni: Bu baytda murakkab badiiy san'atlar mujassam. Xayoliy tasvirlar mushkning kelib chiqishi haqidagi tasavvurga asoslangan, mushk – kiyikning yurak qonidan hosil bo'ladi, u kichik bog'lam (nofe') ichida bo'ladi va shu bog'lam ochilganda hid tarqaladi. Shu o'xshatishga asoslanib, shoir yorining jingalak, qora va xushbo'y sochlarini mushk bog'lamiga o'xshatgan. Baytning tasavvufiy ma'nosi shuki, soch – yaratish sirlarining ramzi bo'lib, bu sirlarni anglash uchun inson ko'p riyozatlar va iztiroblar chekish kerak.

مرا در منزل جانان چه امن عیش چون هر دم
 جرس فریاد می‌دارد که بر بندید محمل‌ها

Menga yor uyida ishrat qurish imkoni yo'q har dam
 Jaras faryod soladir bo'lgan yukni g'ofillar.

منزل safar davomida karvonning vaqtincha to'xtab, yuklarini - joylashtiradigan maskan, oromgoh.

جانان ma'shuq, mahbub. So'fiylik istilohida barcha mavjudotlarning - tayanadigan manbayi sifatida keladi.

محمل karvondagi yuk va tashish vositalari -

Mazmuni: Bu dunyoda biz har doim o'lim xavfi ostidamiz. Xuddi karvon jarangdor qo'ng'iroq ovozi sayohatchilarni harakatga chaqirgani kabi, o'lim doim bizni ogohlantirib turadi. Shu holatda qanday qilib xotirjam holda shodlik qilmoq mumkin?

به می سجاده رنگین کن گرت پیر مغان گوید
 که سالک بی‌خبر نبود ز راه و رسم منزل‌ها

Botir sajjodani mayga agar piri mug'on aytsa,
 Yo'lovchiga erur ma'lum yo'l ahvoli va manzillar.

مغان-donishmand,ustoz
 سالک-haqiqat yo'lida yurgan yo'lovchi

Mazmuni: Pir-tajribali murshid bo'lib, u yo'lovchilarga yo'lni tushuntiradi. U nimayiki buyursa unga itoat qil chunki u yo'lni sir asrorlarini yaxshi biladi. Solek (yo'lovchi) yo'l va manzil odatlaridan bexabar bo'ladi, yo'lga chiqqan boshlang'ich solek nodon va bexabar bo'ladi, pir esa donishmanddir. Shuning uchun pir qanday yo'l yo'riq ko'rsatsa hammasiga amal qil zero ki u bu yo'lda yetarlicha tajribaga egadir.

شب تاریک و بیم موج و گردابی چنین هائل

كجا دانند حالِ ما سبڪباران ساحلِها

Qorong‘idir kecha, qo‘rqinchli mavj, dahshatlidir girdob,

Na bilgay holimizni chetda turgan yuki yengillar.

qo‘rquv, xavotir

dahshatli-

beparvo, tashvishsiz odamlar-

Mazmuni: Shoir o‘zining haqiqatni izlashdagi sarsonligi va dahshatini tasvirlash uchun dengizdagi tun, to‘fon va tahlikani tasvirlab, uni qirg‘oqdagi osoyishtalik bilan qarama-qarshi qo‘ygan.

U o‘zini yo‘lga chiqqan “solekka” o‘xshatadi, go‘yo qorong‘u kechada kemada o‘tirgan va to‘lqin hamda o‘lim girdobi tahdid solmoqda.

Qirg‘oqdagilar esa bular haqida o‘ylamagan, hayotni beparvo va osoyishta kechirayotgan insonlardir deb ta’kidlaydi.

همه کارم ز خودکامی به بدنمی کشید آخر

نهان کی ماند آن رازی کز او سازند محفلِها

Yomon ot birla fosh o‘ldi ishim oxir o‘jarlikdan,

Nechuk yoshrin qolur sir so‘zlasa majlisda oqillar.

o‘xudkamy bilganicha ish tutish, istaklariga ergashish-

sharmandalik, obro‘sizlik-

majlis, suhbat davralari-

Mazmuni: Men faqat o‘z istaklarimga ergashdim va oxir-oqibat obro‘sizlandim. Chunki agar bir sir haqida odamlar ko‘p gapirsa, u sir saqlanib qolmaydi va fosh bo‘lishi muqarrar.

حضوری گر همی خواهی از او غایب مشو حافظ

مَتَى مَا تَلَقَّ مَنْ تَهْوَى دَعِ الدُّنْيَا وَ أَهْلِهَا

Agar vasl istasang, undan yiroqqa ketma, ey Hofiz,

Tilakni izla, qo‘y dunyoni, ber orzuga tabdillar.

qalb xotirjamligi, ma’naviy osoyishtalik-

g‘ofil, beparvo-

qachonki -

uchrashmoq, ko‘rishmoq-

sevgan kishing-

tark et qo‘yib yubor-

Mazmuni: Agar yurak xotirjamligi istasang va ma’shuq doimo yuragingda bo‘lishini xohlasang, hech qachon uni yodingdan chiqarmagin. Agar uni uchratsang, dunyo tashvishlarini unut va butun vujuding bilan unga bag‘ishlan.

Xulosa qilib aytganda Hofiz Sheroziyning “الا يا ايها الساقى” g‘azali nafaqat fors adabiyotining durdonasi, balki butun Sharq she’riyatining eng yuksak namunalaridan biridir. Bu g‘azal faqatgina tashqi go‘zallik bilan cheklanmay, unda chuqur falsafiy va tasavvufiy ma’no yashiringan. Ishq ramzi orqali inson ruhiy yetuklik sari intilishi, dunyo tashvishlaridan voz kechib, ilohiy haqiqatga yetishish yo‘li tasvirlanadi. G‘azalning asosiy mavzularidan biri – hayotning ikki tomonlama mohiyati: bir tomondan, ishqning jozibasi va shavqi, ikkinchi tomondan, uning mashaqqati va sinovlari. Shoir shirin va ravon misralar orqali hayot haqiqatlarini ochib beradi. Uning she’riyati chuqur ramzlar bilan boyitilgan bo‘lib, har bir so‘zning ostida ko‘p ma’nolar yashiringan. Ushbu maqolada g‘azal tahlili orqali Hofizning fikr olami ochib berildi. Uning ijodiga G‘arb va Sharq shoirlari katta e’tibor berganligi, uning she’riyati asrlar davomida turli tafsir va izohlarga sabab bo‘lgani yana bir bor tasdiqlandi. Hofiz g‘azallarining jozibasi shundaki, ular har bir davr va har bir o‘quvchi uchun yangi ma’nolar ochib beradi va har kim o‘z dunyoqarashiga mos hikmatni topa oladi. Shu bois Hofiz Sheroziy ijodi bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib, uning she’rlari mutafakkirlar va adabiyot ixlosmandlarini ilhomlantirib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ahmad Muhammad. Sharq haqni topdi..., (Sharq donishmandlari va allomalarining sara hikmatlari), Toshkent: “Sharq,, nashriyoti, 2006
2. Burrill, Kathleen (1997). "Sudi, Ahmed". Encyclopaedia of islam (به انگلیسی). vol. 9 (2nd ed.). leiden: e. j. brill. p. 762.
3. معنی دو مصراع عربی و توضیحات از استاد دکتر محمدی است.
4. قزوینی،... «بعضی تضمینهای حافظ»، یادگار، س ۱۰، ش ۹، ص – ۴۳
5. غنی،... حافظ، با یادداشتها و حواشی قاسم غنی
6. حافظ قزوینی، کتابخانه استاد مینوی، شماره ۳۱۸۲
7. دهخدا علی اکبر. لغتنامه. تهران. 1998.
8. دیوان حافظ، چاپ تصحیح قزوینی و غنی ۱۳۱۹ شمسی